



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI TA'LIM VAZIRLIGI

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

RAQAMLI PEDAGOGIKA: HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy–amaliy konferensiya

2023 yil 28 sentabr



Toshkent – 2023

“Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi, (2023-yil 28-sentabr, Toshkent, O'zbekiston)

УДК: 681.242.47:371.3

MAS'UL MUHARRIR:

Abdullayeva B.S. - TDPU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, p.f.d., professor

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

Qirg'izboyev A.K. - TDPU rektori, tarix fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

p.f.d., professor **Mamarajabov M.E.**
dotsent v.b. **Yusupova G.Yu**
p.f.f.d., dotsent v.b. **Umarova Z.A.**
tayanch doktorant **Saidova Z.R.**
dotsent v.b. **Adinayev Sh.Sh.**
katta o'qituvchi **Mehmonov R.Yu.**
p.f.f.d., dotsent v.b. **Kudratov K.K.**
p.f.f.d., dotsent v.b. **Nazarov I.U.**
katta o'qituvchi **Mirzahmedova N.D.**
tayanch doktorant **Samandarov J.I.**
o'qituvchi **Ahmedov A.M.**
o'qituvchi **Mallayev R.Q.**

TAQRIZCHILAR:

Ergashov M. – t.f.d., professor

Yuldashev U. – t.f.d., professor

To'plam muharrirlari: Mamarajabov M.E., Saidova Z.R., Umarova Z.A.

Ushbu to'plam Toshkent davlat pedagogika universitetida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-sonli buyrug'i asosida joriy yilning 28-sentabr kuni Toshkent davlat pedagogika universitetida tashkil etilgan “Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat

To'plamda joy olgan tezislarda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga mualliflar javobgardirlar.

INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA RAQAMLI O'RGANISH KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH

Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi ta'lim muhitida raqamli ta'lim asosida o'quvchilarda turli pedagogik ko'nikmalarining shakllanishi hamda raqamli ta'limning o'qitishdagi ahamiyati haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, individual yondashuv, interaktiv dars, qulay ta'lim

Hozirgi kunda deyarli barcha sohalarda raqamli texnologiyalar va raqamlashtirish tushunchalari kirib kelib amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Xususan, ta'lim tizimida ham raqamli texnologiyalardan, turli multimedia vositalaridan foydalanish sifatli va mazmunli darsni tashkil etishning, o'quvchilarning qiziqishlarini, diqqat-e'tiborini jamlashning kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy, mobil vositalardan foydalanish ta'lim oluvchilar uchun qulay, tezkor ravishda bilimlarni o'rganishga xizmat qiladi, shuningdek, o'rganilayotgan mavzu qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Hozirgi axborot almashinuv hamda globallashtirish davrida o'quvchilarni ta'lim jarayoniga yanada jalb qilishda raqamli o'rganish samarali usul hisoblanadi. Bu jarayonda ikki tomon ya'ni ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchilarga ma'lum bir talablar qo'yiladi. Shaxsiy o'rganish va jamoaviy sinflarda o'rganish orasida ma'lum bir chegara hamda talablar mavjud. Maktab faoliyatida o'quvchilarni an'anaviy pedagogik usullarda o'qitish tobora samarasiz kechmoqda. Raqamli asrdagi zamonaviy texnologiyalar, tarmoqlar, tijorat provayderlari ta'lim bozorida ham o'z raqobatchilariga ega bo'lib, ta'lim oluvchilar ham yangi texnologiyalar asosida tashkil etiladigan qulay ta'lim ularning ehtiyojiga aylanib bormoqda.

Bugungi ta'lim muhitida o'quvchilarni zamonaviy, kreativ hamda xalqaro standartlarga javob bera oladigan dars jarayonini tashkil etishda individual yondashuv muhiti asosida raqamli mexanizmlar, raqamli axborotlar bilan ishlash usuli samara bermoqda. Individual yondashuv o'quvchilarda shaxsiy rivojlanish, muammolarni to'g'ri tahlil asosida yechish, shuningdek, erkin va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu yondashuv o'quvchilar duch kelgan turli xil jarayonlarda vaziyatga mos holda psixologik protsesslarsiz kreativ hamda mantiqan to'g'ri yondashuv asosida chiqishga ko'maklashadi.

Individual yondashuv asosida o'quvchilarni raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishda dastavval o'quvchilarni raqamli o'rganishga qiziqtirish hamda ularda motivatsiya hosil qilish lozim. Bu o'quvchilar qiynaladigan mavzularni osonroq tartibda, shuningdek masala shaklida yoki raqamlarda ifodalash orqali amalga oshirilishi mumkin. O'quvchilar raqamlar bilan aloqdadorlikni tushunishi uchun fanlararo integratsiyani olib borishi va bu uchun bevosita har bir fan nuqtayi nazaridan turli misollar keltirilishi lozim. Shu orqali o'quvchilarning fanlararo integratsiyasi davrida o'rgangan bilimlarini diagnostika qilib olish kerak.

Diagnostika natijasida o'quvchilarning olgan integral bilimlarini tahlil qilish hamda baholash, statistik ma'lumotlarni olish maqsadga muvofiq. O'quvchilarda raqamli o'rganish bilan bog'liklikni yanada rivojlantirish uchun raqamli o'yinlardan, turli taqqoslash usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu orqali o'quvchilar bilan amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi. Bu mashg'ulotlarda fanlar yuzasidan raqamli ko'nikmalar shakllantirilib boriladi. O'quvchilarga fanlar kesimida haftalik yoki oylik raqamli grafiklarni tuzish topshirig'ini berish orqali o'quvchilarning rejalashtirish, tahlil qilish, mantiqan fikrlash kabi qobiliyat va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida raqamli o'rgatish, raqamli ta'lim orqali o'qitish - bu o'quv faoliyatini texnologiyalar asosida tashkil qilishni bildiradi. Bu esa o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlarni beradi va yangi qobiliyatlarini shakllantirishga asos bo'ladi, shuningdek, traditsionallikdan anchagina farq qiladi. Raqamli ta'limning asosiy komponentlaridan biri bu internet orqali foydalanish usulidir. Turli xil sayt, ilovalar, onlayn darslar, interaktiv platformalar hamda elektron resurslar orqali o'rganish o'quv jarayonida yangicha usul hisoblanadi. Bu ta'lim platformalari o'quvchilarni ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, qayta ishlash hamda ular bilan keng qamrovli tarzda ishlash imkoniyatini beradi. Bu usul orqali shaxsiy yoki jamoaviy holda istalgan yoshdagi shaxs bilan birga o'rganish ta'lim olish mumkin.

Raqamli ta'lim jarayonining ta'lim oluvchilar uchun bir qancha muhim afzalliklari mavjud. Bu ta'lim usullari orqali o'quvchilar har qanday joyda va o'zlari uchun qulay bo'lgan vaqtda o'rganish, o'zlashtirishlari mumkin. O'quvchilar erkin holda kerakli mavzu hamda ma'lumot materiallarini internet orqali olib o'zlashtirishlari mumkin. Buning natijasida shaxsiy rivojlanish, shaxsga yo'naltirilgan individuallik paydo bo'ladi. O'quvchi o'zi uchun zarur va qiziqarli bo'lgan bilimlarni bemalol individual holda shaxsiy yondashuvi asosida tanlay oladi.

Raqamli ta'lim bir qancha qulayliklarni ham keltirib chiqaradi. O'quvchilar uzoq masofadan, bemalol o'zlari uchun yetarli sharoitga mos bo'lgan ta'lim olishga qulay bo'lgan maskanida internet orqali ta'lim oladi. Bu orqali o'quvchi yangi texnologiyalar bilan bevosita tanishadi, ulardan erkin holda foydalanadi hamda bilimlarini takomillashtiradi.

O'quvchilarda raqamli o'rganish ko'nikmalari shakllantirishning innovatsion usullari, o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradigan yangiliklardan foydalanishni bildiradi. Bu usullarga yana quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Interaktiv darslar ya'ni raqamli darsliklar, onlayn platformalar o'quvchilarga samarali tarzda ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi. Bu orqali o'quvchilar bevosita boshqaruv tizimlarida interaktiv vazifalarni bajarishi, turli virtual va amaliy ishlovchi mashqlarni o'rganishi va bajarishi mumkin.

O'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularning bilimlarini sinash uchun turli mukofotga ega onlayn tanlov hamda musobaqalarni tashkil etish yaxshi samara beradi. Bu orqali o'quvchilarning fanga bo'lgan

motivatsiyasi oshiriladi va rag'batlantirish orqali o'ziga bo'lgan ishonch kompetensiyasi shakllantiriladi.

Ta'lim muassalarida raqamli ta'limni joriy qilish uchun muassasada raqamli ta'lim laboratoriyasini shuningdek, o'quvchilarning bilimlarini amaliy ifodalash uchun o'quv texnoparklarini tashkil qilib, zarur moddiy texnik bazalar bilan ta'minlash lozim. Bu orqali o'quvchi fanda o'zlashtirayotgan nazariy bilimlarini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlab yangiliklar, turli yangi loyihalar yaratadi, tajribasini oshiradi. Bu orqali o'quvchilarda o'z bilimlarini individuallashtirgan holda yangiliklar yaratishga muvaffaq bo'ladi.

Raqamli ta'lim negizida o'quvchilarni virtual tizim orqali o'qitish ularning virtual tarzda tajriba olishlari uchun innovatsion usul hisoblanadi. Bu tizim orqali o'quvchilar turli fan va mavzular bo'yicha eksursiyalar, tarixiy joylarga, bino obyektlariga sayohat qilishlari mumkin. Bu orqali ular virtual ta'lim olishadi. Bu esa o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim orqali ta'lim oluvchi samarali va o'zi uchun qulay tarzda bilim olishi, ma'lumotlarni tahlil qila olishga erishadi. O'quvchilarda individual ishlash ko'nikmasi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy pedagogika.-T: "Fan va texnologiya", 2018
2. Qurbonova, M. F. (2023). Individual ta'lim–innovatsion o'qitish usuli. *Academic research in educational sciences*, 4(3), 394-399.
3. Djuraevich, A. J. (2021). Zamonaviy ta'lim muhitida raqamli pedagogikaning o'rni va ahamiyati. *Евразийский журнал академических исследований*, 1(9), 103-107.

TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Umarova Zaxro Abduraxim qizi – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Matematika va ta'limda axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsent v.b., PhD.

Annotatsiya: Maqolada talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishda va mustaqil ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, mustaqil ta'lim, talabalar mustaqil tayyorgarligi

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida mehnat bozoridagi bo'lajak kadrlarga qo'yilayotgan zamonaviy talablarning kundan-kunga oshishi, natijada esa kadrlarning kasbiy faoliyati davomida yangi ko'nikmalarni o'rganishi va doimiy ravishda o'z ustida ishlashiga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. "Avvallari insonlar hayotining ilk 20 yilida ta'lim olib, keyingi 40-50 yilida o'qigan kasbi bo'yicha ishlagan bo'lsa, endilikda bu model biz yashayotgan

Г.Ю.Юсупова

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ И ЗНАНИЙ В ОБЛАСТИ ЦИФРОВЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ..... 40

F.A.Umarova

TEXNOLOGIK TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O'RNI..... 43

D.E.Abduraimov, V.A.Ibroximov, A.A.Raxmonov

TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH . 45

F.I.Userbayeva

USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION AND REFORMS IN
EDUCATION..... 48

O.O.Abdullayeva

INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA RAQAMLI
O'RGANISH KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH..... 51

Z.A.Umarova

TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR 53

I.M.Nig'matullayev

TA'LIM JARAYONINI TRANSFORMATSIYALASH – DAVR TALABI..... 56

U.A.Madaminov

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FANLARNI MOBIL
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI 60

O.H.Jaynarov

TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH . 64

H.M.Хасанова

ЦИФРОВАЯ ПЕДАГОГИКА В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ..... 65

D.E.Rejabova

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR - BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI
OSHIRISHNING MUHIM OMILI..... 68

N.A.Akmalova

MATEMATIKA DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
DASTURIY TA'MINOTDAN FOYDALANISH 71

M.A.Axmadov, M.A.Asfandiyorov

TA'LIM JARAYONIDA GATJETLARDAN FOYDALANISH METODIKASI.72



Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi

**“Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish
istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy
anjumanidagi ishtiroki uchun**

SERTIFIKAT

bilan taqdirlanadi

**Nizomiy nomidagi TDFU ilmiy ishlar
va innovatsiyalar bo'yicha prorektor**



B.S.ABDULLAYEVA

